



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O‘zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta‘minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta‘minlashda parlamentning o‘rni va mas‘uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o‘ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ekologik sohada qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o‘zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta‘minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o‘rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta‘minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo‘nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

birinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;

ikkinchidan, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;

uchinchidan, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;

to‘rtinchidan, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;

beshinchidan, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;

oltinchidan, o‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;

yettinchidan, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;

sakkizinchidan, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;

to‘qqizinchidan, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	
EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI.....	49
G'afforov X. L.	
MENEJMENT VA BIZNES BOSHQARUVIDA EKOLOGIK, YONDASHUV, ESG TAMOIYILLARI, “YASHIL” STRATEGIYA VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI	58
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich	
РОЛЬ ГРУППЫ ДЕПУТАТОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	65
Алиханов Борий Батирович Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
YASHIL ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH HAMDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL PARTIYALARNING GLOBAL AHAMIYATI.....	69
Qo'chqorov Islomjon Nurali o'g'li Xursanov Kamoljon Erkinjon o'g'li	
RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIK SIYOSAT VA XAVFSIZLIK MASALALARI.....	73
Raximov Oybek Raimovich Xofizov Baxriddin Turdievich	
AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA TA'LIM IMKONIYATLARI (STEAM YONDASHUVI MISOLIDA).....	76
N. Matkarimova	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR PARLAMENTINI MUHIM DEMOKRATIK INSTITUT SIFATIDA SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLDAGI REJALAR.....	80
Abdullayev Muxammadqodir Mashxur o'g'li Xushvaqtov Feruzbek Ilxom o'g'li	
СОТРУДНИЧЕСТВО ПАРЛАМЕНТА УЗБЕКИСТАНА С ННО В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ	83
Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
OROLBO'YI MINTAQASIDA «SUV IQTISODIYOTI» VA «YASHIL OBLIGATSIYALAR» (GREEN BONDS) TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA QONUNCHILIK MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	87
Otamuratov Oybek Baxtiyorovich	



INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING IJTIMOY PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	93
Xodjayeva Mohira Mirzahmadovna	
KORXONALARNING BARQAROR RIVOJLANISH TIZIMIDA EKOLOGIK VA IJTIMOY KO'RSATKICHLAR AUDITI.....	97
Akbarov Azizbek Abdusattarovich	
O'ZBEKISTONDA XALQARO BIZNESNING BARQAROR RIVOJINI TA'MINLASHDA MARKETING VA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI.....	103
Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi	
TOZA HUDUDDAN YASHIL TAFAKKURGA — EKOLOGIK ISLOHOTLARNING AMALIY NATIJALARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	107
Alimardonova Z. M.	
SUV RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH — BARQAROR TARAQQIYOT OMILI	111
Jo'rayev Komiljon Begmonovich	
Xudoyqulov Avloqul Nurmanovich	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH SHAROITIDA SHAHAR VA SANOAT HUDUDLARINI «YASHIL» ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY KAFOLATLARI	114
Berdiqulova Munira Faxriddin qizi	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA XALQARO HUQUQIY STANDARTLARNI O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH: XALQARO MAJBURIYATLAR IJROSI USTIDAN PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	118
Egamberdiyeva Sevara Baxodir qizi	



EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA XALQARO HUQUQIY STANDARTLARNI O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH: XALQARO MAJBURIYATLAR IJROSI USTIDAN PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Egamberdiyeva Sevara Baxodir qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Ommaviy huquq fakulteti, 4-kurs talabasi
E-mail: sewaraegamberd1eva@gmail.com
ORCID: 0009-0008-2842-0513

Annotatsiya. Tezisd a O'zbekistonning xalqaro ekologik standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish holati va ushbu majburiyatlar ijrosi ustidan parlament nazoratini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Rio deklaratsiyasining tavsiyaviy xususiyati, Parij bitimi hamda Orxus konvensiyasining (Aarhus Convention) O'zbekiston uchun majburiyati, shuningdek, Espoo konvensiyasiga (Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context) a'zo bo'lmagan sharoitda transchegaraviy ekologik baholashning milliy huquqdagi o'ni farqlab ko'rsatiladi. O'RQ-1036-son Qonunning 29-, 33-, 39-, 40- va 41-moddalari hamda "Parlament nazorati to'g'risida"gi Qonun tahlil qilinadi [1; 2]. Germaniya va Fransiya tajribasi asosida transchegaraviy baholashning aniq protsedurasi, jamoatchilik muhokamasining minimal muddati, yillik parlament eshituvi va ochiq ifloslantiruvchi moddalar reyestri bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro ekologik huquq, implementatsiya, Orxus konvensiyasi, Parij bitimi, transchegaraviy baholash, parlament nazorati, jamoatchilik ishtiroki, PRTR.

Abstract. This thesis analyzes the current state of implementing international environmental standards into the national legislation of Uzbekistan and the issues of improving parliamentary oversight over the fulfillment of related obligations. It distinguishes the advisory nature of the Rio Declaration, the binding status of the Paris Agreement and the Aarhus Convention (Aarhus Convention) for Uzbekistan, as well as the role of transboundary environmental assessment in national legislation in the context of Uzbekistan's non-membership in the Espoo Convention (Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context). The provisions of Articles 29, 33, 39, 40, and 41 of the Law No. O'RQ-1036 "On Environmental Expertise, Environmental Impact Assessment and Strategic Environmental Assessment" and the Law "On Parliamentary Oversight" are analyzed [1; 2]. Based on the experience of Germany and France, proposals are developed regarding clear procedures for transboundary assessment, minimum periods for public consultations, annual parliamentary hearings, and the establishment of an open pollutant release and transfer register.

Keywords: international environmental law, implementation, Aarhus Convention, Paris Agreement, transboundary environmental assessment, parliamentary oversight, public participation, PRTR.

Аннотация. В тезисе анализируется современное состояние имплементации международных экологических стандартов в национальное законодательство Узбекистана, а также вопросы совершенствования парламентского контроля за исполнением соответствующих обязательств. Разграничиваются рекомендательный характер Декларации Рио-де-Жанейро, обязательность Парижского соглашения и Орхусской конвенции (Aarhus Convention) для Узбекистана, а также определяется место трансграничной экологической оценки в национальном праве в условиях отсутствия членства Узбекистана в Конвенции Эспо (Convention on Environmental Impact Assessment in



a Transboundary Context). Анализируются положения статей 29, 33, 39, 40 и 41 Закона № О'РQ-1036 «Об экологической экспертизе, оценке воздействия на окружающую среду и стратегической экологической оценке», а также Закона «О парламентском контроле» [1; 2]. На основе опыта Германии и Франции разработаны предложения по установлению четкой процедуры трансграничной оценки, минимального срока проведения общественных обсуждений, ежегодных парламентских слушаний и созданию открытого реестра выбросов и переноса загрязняющих веществ (PRTR).

Ключевые слова: международное экологическое право, имплементация, Орхусская конвенция, Парижское соглашение, трансграничная экологическая оценка, парламентский контроль, участие общественности, PRTR.

KIRISH

Ekologik barqarorlikni ta'minlash milliy qonunchilik, xalqaro majburiyatlar va samarali nazorat mexanizmlarining o'zaro uyg'unligini talab qiladi. Iqlim o'zgarishi, havo va suv ifloslanishi, bioxilma-xillikning kamayishi kabi muammolar davlat chegaralari bilan cheklanmaydi. Shu bois xalqaro ekologik normalarni milliy huquqqa kiritish bilan bir qatorda, ularning amaliy ijrosi ustidan parlament nazoratini yo'lga qo'yish muhimdir.

O'zbekiston so'nggi yillarda ekologik qonunchilikni yangilab, 2025-yilda Orxus konvensiyasiga qo'shildi. BMTning xalqaro shartnomalar depozitariysining ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston Konvensiyaga 2025-yil 25-martda qo'shilgan va u mamlakat uchun 2025-yil 23-iyundan kuchga kirgan [9]. Bu holat ekologik axborotga kirish, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki hamda sudga murojaat qilish sohalarida yangi xalqaro majburiyatlarni yuzaga keltirdi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Orxus konvensiyasining O'zbekiston uchun kuchga kirishi munosabati bilan xalqaro ekologik majburiyatlar ijrosi ustidan parlament nazoratining huquqiy mexanizmlari kompleks tahlil qilinib, O'RQ-1036-son Qonun hamda "Parlament nazorati to'g'risida"gi Qonunga amaliy takliflar ishlab chiqilgan [5; 6].

Tadqiqotda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Asosiy manbalar sifatida milliy qonunchilik, xalqaro ekologik hujjatlar hamda UNECE va UNFCCC rasmiy materiallari tahlil qilindi.

Xalqaro hujjatlarning huquqiy maqomi va milliy huquqdagi ifodasi

Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi xalqaro shartnoma emas, balki ekologik siyosatni yo'naltiruvchi tavsiyaviy prinsiplar majmuasi hisoblanadi. Shu sababli u milliy qonunchilikni baholash mezonini bo'la oladi, biroq O'zbekiston uchun bevosita xalqaro majburiyat yaratmaydi [8].

Parij bitimi esa O'zbekiston ratifikatsiya qilgan majburiy xalqaro shartnomadir. UNFCCC ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston Parij bitimini 2018-yil 9-noyabrda ratifikatsiya qilgan [10]. PF-16-son Farmonda Kioto protokoli va Parij bitimi doirasidagi majburiyatlarni bajarish, yashil transformatsiya va iqlim o'zgarishiga moslashish vazifalari belgilangan [7].

Orxus konvensiyasi O'zbekiston uchun 2025-yildan majburiy kuchga ega bo'lganligi sababli, mazkur tadqiqotda asosiy tahlil obyektlaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Uning uch ustuni — ekologik axborotga kirish, qaror qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki va adolatga murojaat qilish — O'zbekistonning "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunidagi oshkorlik va jamoatchilik ishtiroki prinsiplarini yanada amaliy mazmun bilan to'ldiradi [3; 9].

Espoo konvensiyasi transchegaraviy ta'sir ehtimoli bo'lgan yirik loyihalar yuzasidan davlatlararo xabardor qilish va maslahatlashuvlarni nazarda tutadi [11]. Biroq O'zbekiston Espoo konvensiyasiga qo'shilmagan [12]. Shunga qaramay, O'RQ-1036-son Qonunning 29-moddasida transchegaraviy ekologik baholash nazarda tutilgan: O'zbekistondagi faoliyat qo'shni davlatga yoki qo'shni davlatdagi faoliyat O'zbekistonga sezilarli salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan hollarda baholash o'tkaziladi [5].

MAVJUD NORMALAR VA IMPLEMENTATSIYANING AMALIY HOLATI

O'RQ-1036-son Qonunning 33-moddasi strategik ekologik baholashda jamoatchilik eshituvlari haqida rasmiy veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida e'lon berilishini belgilaydi. 39-modda jamoatchilik eshituvlarining maqsadini, 40-modda ularni tashkil etish tartibini, 41-modda esa natijalarni e'lon qilishni nazarda tutadi [5]. Bu normalar Orxus konvensiyasining maqsadiga mos keladi.

Shunga qaramay, amaldagi huquqiy tartibga solishda ayrim takomillashtirish talab etadigan jihatlar mavjud. Birinchidan, 29-moddada transchegaraviy baholashning qaysi hollarda o'tkazilishi belgilangan bo'lsa-da, qo'shni davlatga xabarnoma yuborish, hujjatlarni almashish, maslahatlashuv va yakuniy qarorni yetkazish muddatlari aniqlik emas. Ikkinchidan, 40-modda vakolatli organ uch ish kuni ichida tashkiliy harakatlarni boshlashini



belgilaydi, ammo jamoatchilikning materiallar bilan tanishishi va asoslantirilgan taklif yuborishi uchun minimal umumiy muddatni belgilamaydi [5].

Qodirova hamda Nasriddinova va hammualiflar ekologik monitoring va nazoratni xalqaro ekologik standartlarni samarali amalga oshirishning muhim huquqiy vositalari sifatida baholaydilar [13; 14]. Ushbu qarashlar xalqaro standartlarni implementatsiya qilish faqat qonun qabul qilish emas, balki ma'lumotga asoslangan ijroni yo'lga qo'yish ekanini ko'rsatadi.

Xalqaro majburiyatlar ijrosi ustidan parlament nazoratining o'rni

Parlament korxonalar yoki ijro organlarining texnik faoliyatini bevosita boshqarmaydi. Uning vazifasi — davlat organlari tomonidan Konstitutsiya, qonunlar va davlat dasturlarining ijro etilishini nazorat qilishdir. "Parlament nazorati to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasida parlament so'rovi, 16-moddasida davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish, 17-moddasida qonunlar ijrosi hamda huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish nazarda tutilgan [6].

Mazkur mexanizmlar Orxus konvensiyasi bo'yicha ekologik axborotga kirish va jamoatchilik ishtiroki kafolatlari, Parij bitimi bo'yicha iqlim majburiyatlari hamda O'RQ-1036-son Qonunining transchegaraviy baholash qoidalari qanday bajarilayotganini baholash imkonini beradi. Qonunchilik palatasida 2026-yil iyul oyida Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisining parlament so'roviga javobi ko'rib chiqilgani ushbu vosita amalda qo'llanayotganini ko'rsatadi [15].

Germaniya va Fransiya tajribasi

Germaniya roman-german huquq oilasiga mansub davlat sifatida ekologik axborot ochiqqligini PRTR (Pollutant Release and Transfer Register — ifloslantiruvchi moddalarni chiqarish va tashish reyestri) orqali ta'minlaydi. German Environment Agency yuritadigan Thru.de tizimida sanoat obyektlarining havoga, suvga va tuproqqa chiqargan moddalari hamda chiqindilar haqidagi ma'lumotlar jamoatchilik uchun ochiq [16]. Bu Orxus konvensiyasining ekologik axborotga kirish g'oyasini amaliy mexanizmga aylantirgan misoldir.

Fransiya Ekologiya kodeksi havo sifatini kuzatish va aholini xabardor qilishni yagona huquqiy yo'nalish sifatida tartibga soladi [17]. Germaniya va Fransiya tajribasi O'zbekiston sharoitiga to'liq moslashtirilmagan bo'lsa-da, ekologik axborot ochiqqligi, jamoatchilikning xabardorligi va davlat organlari hisobdorligini kuchaytirish nuqtai nazaridan muhim amaliy ahamiyatga ega.

1-jadval

Xalqaro ekologik majburiyatlar ijrosi va parlament nazoratini takomillashtirish bo'yicha taklif etilayotgan huquqiy mexanizmlar¹

Muammo	Qonunchilikka aniq taklif	Kutiladigan natija
Transchegaraviy baholash protsedurasi batafsil emas.	O'RQ-1036-son Qonunning 29-moddasiga yangi qismlar kiritilsin: vakolatli organ ta'sir ehtimoli aniqlangach besh ish kuni ichida qo'shni davlatning vakolatli organiga xabarnoma yuboradi; javob va maslahatlashuvlar uchun kamida 30 kalendar kun beriladi; yakuniy qaror va asoslantirish	29-modda bo'yicha huquqiy tartib-taomillarning aniqligi ta'minlanadi.
Jamoatchilik eshituvida tanishish muddatining minimal chegarasi yo'q.	O'RQ-1036-son Qonunning 40-moddasiga: Atrof-muhitga ta'sirni baholash (ATAB) materiallari rasmiy saytda kamida 30 kalendar kun ochiq joylashtiriladi; kelgan yozma takliflarga yakuniy xulosada asoslantirilgan javob beriladi, degan qoida kiritilsin.	Orxus konvensiyasining "oqilona muddat" talabi milliy huquqda aniq kafolatga aylanadi.
Xalqaro ekologik majburiyatlar ijrosi yuzasidan doimiy parlament hisobdorligi yo'q.	"Parlament nazorati to'g'risida"gi Qonunga yangi modda kiritilib, Ekologiya qo'mitasi har yili 1-iyungacha Orxus konvensiyasi, Parij bitimi va ekologik qonunlar ijrosi bo'yicha vakolatli organ hisobotini ochiq majlisda eshitishi belgilansin. Qaror o'n ish kuni ichida e'lon qilinsin.	Parlament nazorati muntazam, oshkora va natijaga yo'naltirilgan bo'ladi.

¹ Manba: Muallif ishlanmasi.



Germaniyaning PRTR tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda "Ochiq ifloslantiruvchi moddalar reyestri"ni yaratish taklif etiladi. Reyestr Atrof-muhit davlat monitoringi tizimining jamoatchilikka ochiq moduli bo'lib, unda yirik ekologik xavfli obyektning nomi va joylashuvi, asosiy ifloslantiruvchi moddalari, belgilangan normativ, monitoring natijasi, aniqlangan buzilish va ko'rilgan chora e'lon qilinadi. Tijorat siri va davlat xavfsizligiga oid ma'lumotlar chiqarib tashlanadi.

Bu taklif Orxus konvensiyasining axborotga kirish maqsadiga mos bo'lib, fuqarolar hamda NNTlar uchun ekologik ma'lumotni ochadi, parlament qo'mitalariga qonunlar ijrosini baholash uchun ma'lumotlarga asoslangan nazorat mexanizmlaridan foydalanish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqola tahlili O'zbekistonda xalqaro ekologik standartlarni milliy huquqqa kiritish bo'yicha sezilarli taraqqiyot mavjudligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, hujjatlarning huquqiy maqomini aniq farqlash ilmiy tahlil uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Rio deklaratsiyasi tavsiyaviy manba, Parij bitimi va Orxus konvensiyasi O'zbekiston uchun majburiy xalqaro hujjatlar, Espoo konvensiyasi esa O'zbekiston a'zo bo'lmagan hujjatdir.

O'RQ-1036-son Qonunning 29-moddasida transchegaraviy baholash tartibi belgilangan bo'lsa-da, uni amalga oshirish mexanizmlarini yanada aniqlashtirish mumkin. 30 kunlik jamoatchilik muhokamasi, transchegaraviy xabardor qilishning aniq muddatlari, yillik parlament eshituvi va ochiq ifloslantiruvchi moddalar reyestri joriy etish xalqaro standartlarni amaliy implementatsiya qilishga, ekologik majburiyatlarning samarali bajarilishiga, davlat organlari hisobdorligi va ekologik boshqaruv shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, 754-XII-son, 1992-yil 9-dekabr. — URL: <https://lex.uz/docs/-107115> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
2. O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, 353-I-son, 1996-yil 27-dekabr. — URL: <https://lex.uz/docs/4238830> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
3. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-363-son, 2013-yil 27-dekabr. — URL: <https://lex.uz/ru/docs/2304949?otherlang=3> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
4. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik audit to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-678-son, 2021-yil 15-mart. — URL: <https://lex.uz> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
5. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-1036-son, 2025-yil 24-fevral. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7397280> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
6. O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-403-son, 2016-yil 11-aprel. — URL: <https://lex.uz/docs/-2929477> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son Farmoni, 2025-yil 30-yanvar. — URL: <https://lex.uz/docs/-7369703> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
8. United Nations. Rio Declaration on Environment and Development. A/CONF.151/26 (Vol. I). — New York: United Nations, 1992. — URL: <https://www.un.org/en/conferences/environment/rio1992> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
9. United Nations Treaty Collection. Aarhus Convention — Uzbekistan: Accession. 2025. — URL: <https://treaties.un.org/doc/Publication/CN/2025/CN.152.2025-Eng.pdf> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
10. UNFCCC. Uzbekistan: Paris Agreement Ratification Status. — URL: <https://unfccc.int/node/61233> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
11. UNECE. Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context (Espoo Convention): Introduction. — URL: <https://unece.org/environmental-policy/convention-environmental-impact-assessment-transboundary-context-espoo-0> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
12. UNECE. Central Asia and the Espoo Convention. — URL: <https://unece.org/environmental-policy/environmental-assessment/central-asia> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
13. Qodirova M. D. Ekologik nazorat, ekspertiza, ekologik monitoring va ekologik normativlar atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida // TADQIQOTLAR. — 2025. — №66 (1). — B. 249–261. — URL: <https://scientific-jl.com/tad/article/view/25158> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
14. Nasriddinova Sh., Zokirov A., Umarov B. Implementation of Environmental Monitoring and Environmental Legislation // International Journal of Artificial Intelligence. — 2025. — Vol. 5, №5. — P. 2409–2412. — DOI: <https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.ijai.108110>.
15. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi. Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisining parlament so'roviga



- javobi ko'rib chiqildi. 2026-yil 24-iyul. — URL: <https://parliament.gov.uz/news/ekologiya-va-iqlim-ozgarishi-milliy-qomitasi-raisining-parlament-soroviga-javobi-korib-chiqildi> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
16. German Environment Agency. Pollutants of the PRTR — Situation in Germany, Reporting Years 2007–2024. — Dessau-Roßlau: Umweltbundesamt, 2026. — URL: <https://www.umweltbundesamt.de/en/publikationen/pollutants-of-the-prtr-situation-in-germany> (murojaat sanasi: 01.08.2026).
 17. France. Code de l'environnement: Surveillance de la qualité de l'air et information du public. — URL: https://www.legifrance.gouv.fr/codes/section_lc/LEGITEXT000006074220/LEGISCTA000006159228/ (murojaat sanasi: 01.08.2026).
 18. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. Orxus konvensiyasi: O'zbekistonning qo'shilish jarayoni va 48-a'zo maqomi. — URL: https://gov.uz/oz/ecoekspertiza/activity_page/orxus (murojaat sanasi: 01.08.2026).



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

